



BIR BO‘LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 151 (1212), 2024-yil 30-iyul, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Aziz va qadrlı vatandoshlar!

Avvalo, sizlarni, butun O‘zbekiston xalqini Xalqlar do‘stligi kuni bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etish maqsadida boshlagan islohotlarimiz jarayonida jamiyatimizda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlashni eng ustuvor vazifalarimizdan biri etib belgiladik.

Dunyoda Xalqaro do‘stlik kuni deb qabul qilingan 30-iyul sanasini mamlakatimizda **Xalqlar do‘stligi kuni** deb e‘lon qilganimiz va o‘ziga xos bayram sifatida keng nishonlashni an‘anaga aylantirganimiz ham shundan dalolat beradi.

Dunyo miqyosida bag‘rikeng yurt sifatida e‘tirof etiladigan jonajon Vatanimizda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv, ahil-inoq, hamjihat bo‘lib yashamoqda. 157 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do‘stlik jamiyati faoliyat ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizdagi ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlari o‘zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg‘iz va turkman tillarida olib borilmoqda, qardosh tilli maktablarda o‘qiyotgan farzandlarimiz davlat hisobidan darslik va badiiy adabiyotlar bilan ta‘minlanmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlarda tashkil etilgan “Do‘stlik uylari” faoliyati har tarafmala qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xususan, Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan ushbu maqsadlar uchun zarur mablag‘lar yo‘natilmoqda, turli subsidiya va grantlar ajratilmoqda.

Milliy madaniy markazlarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida ular davlat tomonidan zamonaviy texnik uskunalar, musiqiy asboblari, mebel jihozlari, milliy liboslar bilan ta‘minlandi.

Milliy madaniy markazlar faoliyati uchun eng ko‘rkam binolar ajratib berildi. Bu maskanlarda muntazam ravishda umummilliy bayramlar, festivallar, konsert va uchrashuvlar, taniqli

madaniyat arboblari chiqishlari, seminar va konferensiyalar o‘tkazilmoqda.

“O‘zbekiston — umumiy uyimiz” degan ezgu g‘oya barcha milliy madaniy markazlarning shioriga aylangani diqqatga sazovor.

Bu jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhiti, tinchlik va osoyishtalikning amaliy ifodasidir.

O‘tgan yillar mobaynida yurtimizda Xalqlar do‘stligi festivallari doirasida o‘tkazilgan davra suhbatlari, ijodiy muloqotlar, turli millat vakillarining kitob ko‘rgazmalari, fotoko‘rgazmalar, xalqaro konferensiya va boshqa madaniy-ma‘rifiy tadbirlar millatlar va elatlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarining mustahkamlanishida yana bir muhim bosqich bo‘ldi.

Chet ellarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan aloqalar mustahkamlanib bormoqda.

“2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish belgilangani ham mazkur yo‘nalishdagi ishlarimizning bardavom ekanini ko‘rsatadi.

“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da turli millat yoshlari uchun qo‘shimcha qulay sharoitlar yaratish, ularning fuqarolik burchini his etishi va anglashi, vatanparvarlik hismini kuchaytirish, bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muloqot madaniyatini oshirish kabi xayrli ishlar olib borilmoqda.

Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, so‘nggi yetti yilda O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosatida ulkan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Buni jahon hamjamiyati, xalqaro ekspertlar, taniqli davlat va siyosat arboblari ham e‘tirof etmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi qo‘shni davlatlar bilan do‘stona aloqalar qayta tiklangani, azaliy rishtalar yangicha mazmunda davom ettirilayotgani xalqimizning xohish va istaklari, orzu-intilishlarini yaqqol ifoda etmoqda.

Muhtaram do‘stlar!

Hech kimga sir emas, bugun dunyoda beqaror vaziyat hukm surmoqda. Xalqaro maydonda davlatlarning bir-biriga o‘zaro ishonchi susayib bormoqda. Bunday murakkab sharoitda hayotning o‘zi bizdan mamlakatimizda hukm surayotgan o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, totuvlik va birdamlik muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarni buzg‘unchi yot g‘oya va oqimlar, tashqi ta’sirlardan asrashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni talab etmoqda.

Ko‘pmillatli va ko‘pmadaniyatli jamiyatni oqilona boshqarish sohasida O‘zbekiston muhim tajriba to‘pladi. Bizning bu boradagi faoliyatimiz dunyo miqyosida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Biz bundan buyon ham nodavlat tashkilotlarning rolini kuchaytirish, ularning huquqlarini kafolatlash orqali fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga, millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, har bir fuqaroning vijdon erkinligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratamiz. Mamlakatimizda millatlar va konfessiyalar o‘rtasidagi totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash siyosatini izchil davom ettiramiz.

Bu olijanob maqsad yo‘lida yurtimiz bo‘ylab bir hafta davomida o‘tkaziladigan Do‘stlik festivallari xalqimizni yanada birlashtiradi, mintaqamizdagi tinchlik va osoyishtalik, millatlararo hamjihatlik va diniy bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Aziz yurtdoshlar!


Fursatdan foydalanib, sizlarni, butun xalqimizni Xalqlar do‘stligi kuni bilan yana bir bor chin ko‘ngildan muborakbod etaman.

Jonajon Vatanimizda doimo tinchlik-osooyishtalik va farovonlik hukm sursin, ko‘pmillatli O‘zbekiston xalqiga hamisha baxtu saodat yor bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Mening tanlovim — obod Vatanim!

SAYLOV HUQUQI: INSON QADRIGA YUKSAK E‘TIBOR



Mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari sayloviga qizg‘in hozirlik ko‘rilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining shu yil 26-iyulda bo‘lib o‘tgan navbatdagi majlisi ana shu muhim siyosiy voqeaga bag‘ishlandi.

Qonunchilik palatasi hamda mahalliy kengashlar deputatlari besh yil muddatga saylanadi. Amaldagi Qonunchilik palatasi hamda mahalliy kengashlarga deputatlar saylovi 2019-yili o‘tkazilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128-moddasiga muvofiq, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlar tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — oktyabr oyi uchinchi o‘n kunligining birinchi yakshanbasida o‘tkaziladi. Demak, Oliy Majlis quyi palatasi hamda mahalliy kengashlar deputatlari saylovi 2024-yil 27-oktabr, yakshanba kuni bo‘lib o‘tadi.

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Saylov kodeksida belgilangan muddatlardan kelib chiqib, 26-iyuldan Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi bo‘yicha saylov kompaniyasiga start berilib, kalendar-reja tasdiqlandi.

Ushbu saylovlarda Konstitutsiyamiz va xalqaro saylov standartlariga binoan, mamlakatimizning oliy davlat vakillik va qonun chiqaruvchi organi hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tarkibi yangilanishi ta‘minlanadi.

Sifat o‘zgarishlari

Saylov kampaniyasi boshlangan kuni komissiyamiz tomonidan qabul qilingan qarorlar, o‘tkazilgan qator qiziqarli brifinglar, taqdimot marosimlari va suhbatlar bo‘lajak saylovlarning o‘ziga xos jihatlariga bag‘ishlandi. Ommaviy axborot

vositalari ushbu tadbirlarni tezkorlik bilan yoritish va atroficha sharhlashga kirishdi. Turli janrlardagi yuzlab materiallar e‘lon qilindi va ulardan millionlab odamlar, shu jumladan, xorijdagilar ham bahramand bo‘ldi. Bu mamlakatimizdagi tarixiy o‘zgarishlarga yurtodoshlarimiz bilan birga xalqaro jamoatchilikning ham katta qiziqishidan dalolat.

Tadbirlarda bir gap alohida ta‘kidlangani ko‘pchilikning e‘tiborini tortdi: yangi O‘zbekiston milliy saylov qonunchiligi va amaliyotining tizimli ravishda demokratik andazalarga hamohang tarzda takomillashtirilayotgani fuqarolarning saylov huquqini keng va to‘la ta‘minlash borasida sifat o‘zgarishlarini amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligini nishonlashga hozirlik ko‘rayotgan mamlakatimiz milliy saylov tizimidagi ana shunday salmoqli o‘zgarishlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va samaralari haqida so‘z yuritishning ayni fursati deb o‘ylayman.




Jahondagi rivojlanish jarayoniga sinchkov razm solinsa, turfa manzaraga duch kelish mumkin. Bunday manzara G‘arb va Sharqning eng rivojlangan demokratik davlatlarida xalqaro kuzatuvchi sifatida saylovlarni kuzatish asnosida ularning saylovlarga doir milliy qonunchiligi va amaliyotida yuz berayotgan o‘zgarishlarda ham ko‘rinadi. Necha yuz yillar avval erkin demokratik saylovlarga beshik bo‘lgan mamlakatlarning milliy saylov tizimi hali-hamon takomilga ehtiyoj sezadi. O‘zgarishlarga yuz tutadi. Ha, taraqqiyot muttasil takomilga intilishda.

Yangi O‘zbekistonning milliy saylov qonunchiligi, saylov komissiyalari va saylovlarni o‘tkazish amaliyoti xalqqa, saylovchilarga yanada yaqinlashganini ta‘kidlayotgan xalqaro ekspertlar fikri amalda o‘z tasdiq‘ini topmoqda. Tizim, ta‘bir joiz bo‘lsa, saylovchining talab va istaklariga mos yo‘llarni faol izlamogda va topmoqda. Takomil — dunyo davlatlari intilayotgan eng to‘g‘ri yo‘l. Har bir yangi qulaylik, taraqqiyotning har bir mevasi, eng avvalo, aziz va mukarram inson manfaatlariga xizmat qilishi, insonning qalbini yanada yuksaltirishi zarur.

Davomi 3-betda

Shukuh



JASORATLI QIZ DUNYONI LOL QOLDIRD

Shu kunlarda dunyo nigohi Fransiya poytaxti Parij shahriga qaratilgan. U to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladigan yozgi Olimpiadaga mezbonlik qilmoqda. Dunyoning ko‘plab nuqtalaridan vatani, elu yurti ishonchini oqlash uchun maydotalab sportchilar kuch sinashmoqda.

Bu Olimpiadada O‘zbekiston delegatsiyasi litsenziyalari bo‘yicha o‘z rekordini yangilab, ilk bor 19 sport turida 90 sportchi bilan 75 ta yo‘llanmaga sazovor bo‘ldi.

Quvonarlisi, musobaqaning dastlabki kunlaridanoq yurtimiz madhiyasi yangrab, bayrog‘imiz baland ko‘tarildi. Diyora Keldiyorova Olimpiya o‘yinlarida chempionlikni qo‘lga kiritgan ilk o‘zbekistonlik dzyudochiga aylandi.

Shuningdek, 16 yildan keyin o‘zbekistonlik ayol sportchi yana Olimpiya shohsupasiga ko‘tarildi. “Bu sovrin nafaqat mening, balki butun ayol sportchilarning medali. Bilaman, bu medal O‘zbekistonda ayollarga juda katta yo‘l ochadi. Bunga o‘z hissamni qo‘shganimdan xursandman”, dedi sportchi.

Davomi 2-betda

Olimpiada daftari

DIYORA

Yapon kurashida yapon qizini Ippon usulida yutdi Diyora. Olimp kitobiga go‘zal ismini Oltin harf bilan bitdi Diyora.

Qaldirg‘ochu lochin kuchiga qarang! Tan berdi olmonu yiqildi farang, Kosovoga armon bo‘ldi so‘nggi jang, Barchasidan bir-bir o‘tdi Diyora.

Oltin olib keldi hammadan oldin, Yuz oltinga tengdir birinchi otin! Nihoyat his qildir g‘alabani tatin, Zafar qadahini tutdi Diyora.

Nodir JONUZOQ

Xushxabar shavqidan polvon elim mast, Kurash bu — yutgay kim mashqdan erinmas, Kimning misi chiqsa, tilla berilmas, Oliy orzusiga yetdi Diyora.

Shohsupaga chiqdi ko‘zda yosh bilan, Bayroqni yuksaltgan mag‘rur bosh bilan, Shu totli lahzani zo‘r bardosh bilan Ter to‘kib, oy-yillab kutdi Diyora.

Quvonib qutladi Millat Sardori: “Balli, ey xalqimning g‘ururi, ori! Sen bois baxtlidir o‘zbek diyori...” Hammani baxtiyor etdi Diyora.

Diyorimning oltin qizi Diyora, To‘marisning yoniq izi Diyora. Yurtimning yuzini charog‘on etgan O‘zbekimning yorug‘ yuzi Diyora!

30-iyul — Xalqlar do‘stligi kuni



DO‘STLIK FESTIVALI — BIR TAN-U BIR JONLIK AYYOMI

2



biri saylovchilarning yarmidan ko‘pining ovozi o‘lmaganligi mumkin edi. Bu esa takroriy ovoz berish, qo‘shimcha tashvish va xarajat demakdir. Jumladan, 2019-yilda o‘tkazilgan parlament saylovlarda yigirma beshta saylov okrugida takroriy ovoz berish jarayoni o‘tkazilgan.

Bundan tashqari, bo‘shab qolgan deputatlik o‘rmini to‘ldirish uchun saylov komissiyalari faoliyatini qaytadan tiklash zarur. Bu esa minglab odamlarni yana saylov komissiyalari ishiga jalb etish, saylovchilarni yana ovoz berishga da‘vat qilish bilan bog‘liq. Proporsional saylov tizimining afzalligi shuki, bunday holatlarda partiya tomonidan ko‘rsatilgan ro‘yxat bo‘yicha navbatdagi nomzod deputatlik o‘rmini egallaydi. Partiyalar tomonidan shakllantirilgan ro‘yxatlar jamoatchilik e‘tiboriga havola qilinadi.

FAOL RAQOBAT MUHITI

Joriy yildagi saylovlar Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilgan kuchli parlamentarizm va joylarda vakillik organlarining vakolati sezilarli darajada kuchaytirilgan sharoitda o‘tadi.

Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik



Mening tanlovim — obod Vatanim!

SAYLOV HUQUQI: INSON QADRIGA YUKSAK E‘TIBOR



Zayniddin NIZOMXO‘JAYEV,
Markaziy saylov komissiyasi raisi,
O‘zbekiston Qahramoni

Boshlanishi 1-betda

HAYOTBAXSH G‘O‘YA

Mamlakatimiz milliy saylov qonunchiligi, amaliyoti va saylov komissiyalari tizimidagi sifat o‘zgarishlari inson qadri har narsadan ulug‘, degan hayotbaxsh g‘oyaga mos ravishda takomillashib borayotganini ko‘ramiz. Yangi O‘zbekistonda saylovlar va referendumga tayyorgarlik ko‘rish hamda ularni o‘tkazish falsafasida ana shu yorqin milliy g‘oya o‘zining in‘ikosini topmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bundan besh yil avval milliy saylov qonunchiligiga oid beshta qonun va o‘nlab qonunosti hujjatlarni o‘zida mujassam etgan Saylov kodeksi qabul qilinishini saylov jarayoni ishtirokchilari ham, xalqaro ekspertlar ham qizg‘in xayrixohlik bilan kutib olgan edi. Samarali muhokamalardan so‘ng qabul qilingan kodeks parlamentimiz quyi palatasi va mahalliy kengashlarga saylovlarda 2019-yil ilk bor sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgan.

Bunday muvaffaqiyatlarning bosh omili, avvalo, jamoatchilik fikri inobatga olinib, xalqimiz bilan birga, maslahatlashib qabul qilinayotgan qonunlar va qarorlardir. Bu o‘tgan yili yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni ishlab chiqish va umumxalq referendumida qabul qilish jarayonida yanada yorqin namoyon bo‘ldi. Konstitutsiya tom ma‘nodagi xalq muallifligidagi tarixiy hujjat bo‘lganini dunyo ahli keng e‘tirof etdi. Hamyurtlarimiz, ayniqsa, yoshlarning bu jarayonda faol ishtiroki ularda vatan taqdiriga qadrdorlik tuyg‘usi baland va sobit ekanini ko‘rsatdi.

2023-yil 18-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun ham jamoatchilikning fikri keng e‘tiborga olinib qabul qilingan hujjatlardan biridir.

Mazkur konstitutsiyaviy qonunda Qonunchilik palatasiga saylovda aralash, ya‘ni majoritar va proporsional tizimni joriy qilishga doir yangi normalar belgilandi. Aralash saylov tizimining afzalligi — o‘zida amaldagi majoritar va proporsional saylov tizimining eng ilg‘or tamoyillarini uyg‘unlashtirib, bir-birini to‘ldirganida.

Parlamentimiz quyi palatasi besh yil muddatga saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat. Bu yil mamlakatimiz tarixida birinchi marta deputatlarining yetmish besh nafari bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha saylovchilarning bevosita nomzodlarga bergan ovozigacha muvofiq saylanadi. Qolgan yetmish besh nafari esa yagona saylov okrug bo‘yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlariga mutanosib ravishda siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlar ro‘yxati (ya‘ni partiya ro‘yxati) asosida saylanadi.

Endi saylovchi Qonunchilik palatasi deputatligiga saylovda ikkita buyuliten orqali ovoz beradi: birinchisida aniq bir nomzodga ovoz bersa, boshqasida o‘zi ishongan siyosiy partiyani belgilaydi.

Ilgari deputatlikka nomzodlar orasida ayollar kamida 30 foiz bo‘lishi kerak, degan gender kvotasi endi 40 foizgacha ko‘tarildi. Siyosiy partiya ro‘yxatidagi ketma-ketlikda esa kamida har besh nomzodning ikki nafari ayol kishi bo‘lishi lozim.

Majoritar tizimda siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlarning hech

palatasining mutlaq vakolatlari amaldagi 5 tadan 12 taga, Oliy Majlis Senatniki esa 12 tadan 18 taga ko‘paytirildi. Parlamentning ijro etuvchi, sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat funksiyalari kengaytirildi.

Hokimlarning xalq deputatlari kengashlariga rahbarlik qilishi bekor qilindi. Davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda vakillik organlari rolini oshirish maqsadida avval hokimlarda bo‘lgan 33 ta vakolat mahalliy kengashlarga o‘tkazildi. Bu esa siyosiy partiyalar va nomzodlar o‘rtasida faol raqobat muhiti shakllanishiga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaviy qonun talablaridan kelib chiqib, Markaziy saylov komissiyasining barcha normativ-huquqiy hujjatlari to‘la xatlovdan o‘tkazildi. O‘nga yaqin nizom, yo‘riqnom va boshqa hujjatlar yangidan ishlab chiqildi va qabul qilindi. Ayrimlariga zarur o‘zgartirishlar kiritildi.

E‘TIBOR

MARKAZIDAGI ODAM

Saylovlar jarayonida e‘tibor markazidagi eng muhim odam — saylovchi. Butun jarayon uning manfaatlarini ko‘zlab tashkil etiladi. Qonunlar, tartib-qoidalar, eng avvalo, saylovchiga qulaylik yaratish nuqtayi nazaridan ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan shu yil 2-iyul kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlari saylovda ovoz berishni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomda belgilangan tartib-qoidalar ham ayni maqsadga xizmat qiladi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, unda saylovda ovoz berishni tashkil qilishning “ipidan ignasigacha” qamrab olingan.

Deylik, saylovchilar ovoz berish xonasiga qaysi eshikdan kirib, qayerdan chiqib ketishigacha, ovoz berish xonasida saylov kuni va ovozlarini sanab chiqish jarayonida kimlar, masalan, kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari, komissiya raisi, o‘rinbosari, kotibi, a‘zolari qayerda turishi yoki o‘tirishigacha, qanday vazifalarni bajarishigacha, yashirin ovoz berish kabinalari, saylov qutisi, hatto ko‘chma ovoz berish qutisi qayerda joylashishidan tortib, dalolatnomalarning shakllariga aniq belgilandi. Saylov tashkilotchilariga tanlash imkoniyatini yaratish maqsadida ovoz berish xonasini tashkil etishning to‘rt xil variantdagi tarsi-xemasi taklif etiladi.

Saylovchilar uchun ham, saylov tashkilotchilari uchun ham pishiq-puxta ishlab chiqilgan bunday qulaylik, aniqlik, birxillik va qat‘iy tartib o‘z samarasini berishiga ishonaman. Bir qarashda ancha mayda, hatto arzimaddek ko‘ringan bunday tartibotni shu paytgacha har kim har xil — o‘zining didi, saviyasi va imkoniyatidan kelib chiqib qo‘llagan ma‘lum. Natijada uchastka saylov komissiyalari ishini to‘g‘ri tashkil etish borasida muayyan noqulayliklar tug‘ilgani sir emas. Holbuki, saylovga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishdek muhim siyosiy jarayonda e‘tibordan chetda qoldirish mumkin bo‘lgan mayda jihatning o‘zi yo‘q.

E‘tibor bering: hatto uchastka saylov komissiyasining peshlavasi, saylov uchastkasiga yo‘naltirilgan yo‘lko‘rsatkichlar har xil shakl va ranglarda yozilgan yoki umuman unutilgan. Turlichalikka chek qo‘yilib, birxillik sari jiddiy qadamlar tashlandi: milliy standartlar va talablar belgilandi.

Bir yo‘la Qonunchilik palatasi, viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylovlar bo‘lib o‘tadigan joriy yilda bu, ayniqsa, yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

“Teatr kiyim ilgichdan boshlanadi” degan mashhur iborani ko‘pchilik biladi. Saylov uchastkasida saylovchiga e‘tibor yo‘lko‘rsatkichdan boshlanadi, desak

mubolag‘a bo‘lmaydi. Ovoz bermoqchi bo‘lgan saylovchilar, ayniqsa, keksalar saylov uchastkasini topishga qiyinalib, so‘rab-surishtirib yurganiga ko‘pchilgimiz duch kelganmiz. Ikki qarichlik oddiy lavhada davlatimizning o‘z fuqarolariga hurmat-ehtiromi mujassam.

Bularning barchasi mamlakatimizda inson qadrlini ulug‘lash, saylov huquqini yanada keng va to‘la ta‘minlashga qaratilayotgan doimiy e‘tibor samarasidir.

NOMZOD KO‘RSATISH HUQUQI

Saylov kampaniyasining avvalida ko‘pchilikni qiziqitiradigan savollar bo‘ladi. Ularga bir yo‘la javob berish foydadan xoli emas. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylovlarda ishtirok etishga ijozat olish va deputatlikka nomzodlar ko‘rsatish uchun esa siyosiy partiyalar tomonidan saylovchilarning qo‘llab-quvvatlovchi imzolarini to‘plash talab etilmaydi.

Qonunchilik palatasi hamda mahalliy kengashlar deputatligiga nomzodlar ko‘rsatish saylovga oltmish besh kun qolganda boshlanadi va saylovga qirq besh kun qolganda tugaydi. Nomzodlarni ro‘yxatga olish saylovga o‘ttiz besh kun qolganda yakunlanadi.

KIMLAR DEPUTAT BO‘LISHI MUMKIN?

Qonunchilik palatasiga saylanish huquqiga saylov kuni yigirma besh yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi

bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha deputatlikka yetmish besh nafar nomzod, ya‘ni har bir saylov okrugidan deputatlikka bittadan nomzod ko‘rsatadi. Partiya ro‘yxati bo‘yicha esa deputatlikka yetmish besh nafardan kam bo‘lmagan, yuz nafardan ko‘p bo‘lmagan nomzod ko‘rsatadi.

Bir mandatli saylov okruglarida ayni bir shaxs faqat bitta saylov okrugidan deputatlikka nomzod etib ko‘rsatiladi.

Partiya ro‘yxatiga kiritilgan nomzodlar ushbu siyosiy partiyaning a‘zolari yoki partiyasiz bo‘lishi mumkin. Boshqa siyosiy partiyaning a‘zolari ushbu ro‘yxatga kiritilishi mumkin emas. Bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ko‘rsatilgan nomzodlar ham partiya ro‘yxatiga kiritilmaydi.

Gap mahalliy kengashlar deputatligiga nomzodlar haqida borar ekan, bunda ham siyosiy partiyalarning tegishli organlari tomonidan nomzodlar ko‘rsatilishini ta‘kidlash o‘rinli.

Siyosiy partiyalar tegishli hududda joylashgan har bir saylov okrugidan mahalliy kengashlar deputatligiga bittadan nomzod ko‘rsatishga vakolatli. Bir shaxs tegishli mahalliy kengashga saylov o‘tkazish bo‘yicha faqat bitta saylov okrugidan deputatlikka nomzod etib ko‘rsatilishi mumkin.

RAQAMLASHAYOTGAN MULOQOT

O‘zbekistonda saylov jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish doimiy e‘tibor qaratilayotgan eng muhim yo‘nalishlardan. Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxati, saylov jarayonini boshqarish axborot tizimining so‘nggi yillarda o‘tkazilgan saylovlarda muvaffaqiyatli qo‘llangan shular jumlasidan.

Endi barcha darajadagi saylov komissiyalari faoliyati, saylov jarayonlari ishtirokchilari bilan o‘zaro munosabati to‘liq raqamlashtirildi. Saylov tartibotidagi byurokratiya, ortiqcha vaqt sarfi va hujjatlar harakati qisqartirildi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda milliy saylov amaliyotiga “E-saylov” axborot tizimini joriy etishga kirishilgani bu yilgi saylovlar jarayonidagi muhim yangiliklardan yana biridir. Ushbu zamonaviy tizimning afzalligi — saylov komissiyalarining siyosiy partiyalar, nomzodlar, kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari bilan qariyb 60 turdagi munosabati to‘liq elektron tarzda amalga oshiriladi. Saylov jarayonining 400 mingga yaqin ishtirokchisi, jumladan, saylov komissiyalari a‘zolari, deputatlikka nomzodlar, kuzatuvchilarga oid katta ma‘lumotlar bazasi shakllantirildi. Tizimdan saylov jarayonining 32 ming ishtirokchisi professional tarzda foydalanadi va qirq turdagi SMS-xabaroma orqali muloqot o‘rnatiladi.

“E-saylov” axborot tizimida fuqarolar uchun ham saylovga oid axborotlar olishda qator qulayliklar joriy etilgan. Xususan, axborot tizimi saylovchilar va saylov uchastkalariga oid statistik ma‘lumotlarni olish, barcha turdagi saylovlar bo‘yicha deputatlikka nomzodlar haqida axborotga ega bo‘lish, interaktiv xaritalarda deputatlikka nomzodlar va ularning shakllantirildi. Tizimdan saylov jarayonining 32 ming ishtirokchisi professional tarzda foydalanadi va qirq turdagi SMS-xabaroma orqali muloqot o‘rnatiladi.

Ushbu yangi tizim joriy yilda Xalq deputatlari Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri kengashlaridagi bo‘shab qolgan deputatlik o‘rinlariga o‘tkazilgan saylovlarda muvaffaqiyatli sinab ko‘rildi.

YUKSAK SHARAF VA ULKAN MAS’ULIYAT

Milliy saylov qonunchiligi ilg‘or demokratik standartlarga mos ravishda tubdan takomillashtirildi. Jumladan, saylov organlarining Markaziy saylov komissiyasi boshchiligidagi yangi tizimi joriy etildi.

Endi Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy kengashlar deputatlari saylovini o‘tkazuvchi komissiyalar tizimi Markaziy saylov komissiyasi, hududiy saylov komissiyalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi, tuman va shahar saylov komissiyalari, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri kengashlariga saylov o‘tkazish bo‘yicha okrug saylov komissiyalari va uchastka saylov komissiyalaridan iborat.

Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 29-maydagi “Viloyatlar va Toshkent shahar hududiy saylov komissiyalarini tuzish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, mamlakatimiz tarixida birinchi marta viloyatlar va Toshkent shahri hududiy saylov komissiyalari tuzildi. Milliy saylov komissiyalari tizimida yangi va muhim bo‘g‘in bo‘lgan ushbu komissiyalar viloyatlar va Toshkent shahri chegaralari doirasida tuzildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qonunchilik palatasi deputatlari saylovlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish bilan bog‘liq hududiy saylov komissiyalarining vakolatlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi amalga oshiradi. Hududiy saylov komissiyalari a‘zolarining umumiy salmog‘i — 267 nafar (56 foizi — erkaklar, 44 foizi — ayollar), shundan 223 nafari (84 foizi) avvalgi saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishda qatnashgan. Saylov kodeksiga muvofiq, ushbu komissiyalarning uch nafargacha a‘zosi doimiy asosda ish yuritadi.

Xalqaro tashkilotlar reytingida dunyodagi xatardan eng xoli, tinch va osoyishta, huquq ustuvorligi eng tez yaxshilanayotgan mamlakat sifatida birinchi o‘rinni olgan yangi O‘zbekistonning milliy saylov tizimida faoliyat yuritish har bir fuqaro uchun yuksak sharaf va ulkan mas’uliyatdir.

XALQARO ANDAZALAR ASOSIDA

Saylovlarni yuqori saviyada tashkil etishda saylov komissiyalari a‘zolarining milliy saylov qonunchiligi va amaliyoti hamda saylovlarga oid xalqaro standartlar bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan joriy yil 27-may kuni tasdiqlangan va ijrosiga jadal kirishilgan Saylov komissiyalari a‘zolarining malakasini oshirishni tashkil etish konsepsiyasi ana shunday maqsadga xizmat qiladi.

Konsepsiya doirasidagi o‘qitish ishlari uch yo‘nalish va ikki bosqichda amalga oshiriladi. Mashg‘ulotlarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Ayni paytda malakali ekspertlar tomonidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy materiallar, jumladan, qo‘llanmalar, ma‘ruzalar matni, topshiriq savollari, test, taqdimot, infografika, videolar va boshqa materiallar tinglovchilar e‘tiboriga havola etiladi.

Ayni kunlarda mazkur konsepsiyada belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash borasidagi ishlari izchillik bilan davom ettirilmoqda.

ESHIGIMIZ DOIM OCHIQ

Saylovlarga tayyorgarlik jarayonida saylov- oldi tashviqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Saylovoldi tashviqoti nomzodlarni va partiya ro‘yxatini ro‘yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning eritasidan, ya‘ni 22-sentabrden boshlanadi. Saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganda tashviqotga yo‘l qo‘yilmaydi.

Markaziy saylov komissiyasi va barcha darajadagi saylov komissiyalari o‘z ishini hamisha ochiqlik, oshkorlik va shaffoflik tamoyillariga binoan tashkil etib kelmog‘da. Jurnalistlar uchun eshigimiz doim ochiq. Faqat ovoz berish yashirin! Buning yaqqol dalili Markaziy saylov komissiyasi huzurida matbuot markazi faoliyatining yo‘lga qo‘yilganidir. Matbuot markazining hududiy bo‘linmalari ham tashkil etiladi.

Mamlakatimiz parlamenti va mahalliy kengashlarga bo‘lib o‘tadigan saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bilan bog‘liq jarayonlar, jumladan, saylovchilarning ovoz berish jarayonini siyosiy partiyalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakillari, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar kuzatuvchilari, OAV vakillari, shuningdek, xorijlik jurnalistlar kuzatib boradi.

VATAN MANFAATI

Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi eng ko‘lamli, dadil va izchil islohotlarning ustuvor vazifalari va asosiy yo‘nalishlaridan biri inson qadrlini yanada yuksaltirish, uning huquqlari, jumladan, saylov huquqini har tomonlama va keng ta‘minlashdan iborat.

Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “Albatta, biz turli siyosiy partiyalarga mansub bo‘lishimiz, turli g‘oya va qarashlar tarafdori bo‘lishimiz mumkin. Demokratiya degani ham aslida shu. Ammo mohiyat e‘tibori bilan qaraganda, barchamizning, butun O‘zbekiston xalqining maqsadi bir. Bizning barchamizni Vatan, el-yurt manfaatini birlashtiradi”.

Zero, taraqqiyparvar xalqimiz va jonajon Vatanimiz taqdiri uchun har birimiz mas’ulmiz. Shu jihatdan olganda, o‘zida ulug‘ hikmat, buyuk maqsadni mujassam etgan “Mening tanlovim — obod Vatanim!” degan shior ostida o‘tishi joriy yildagi saylovlarga yangicha mazmun va yuksak joziba bag‘ishlaydi. “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda 27-oktabr kuni o‘tkaziladigan saylovlar jonajon O‘zbekistonimizning bugungi va istiqbolidagi hayotida yuksak ahamiyat kasb etadigan milliy parlamentimiz va mahalliy kengashlarning yangi tarkibini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi. Barcha darajadagi saylov komissiyalarining sa‘y-harakatlari shu maqsadga yo‘naltirilgan.



TAJIRIBA — KOʻZLANGAN MAQSADGA

ERISHISH VOSITASI

YOXUD ISLOHOTLAR SAMARASI

BOʻY KOʻRSATMOQDA



SAYXUNOBOD TUMANI

Taraqqiyot odimlari

Biror faoliyat, kuzatuv, kechinma, taassurotlar orqali yigʻilgan bilim, koʻnikma yoki xulosani tajriba, deymiz. Yana tajribani muayyan faoliyat turi boʻyicha sinovdan oʻtgan, ushbu jarayonda yuqori samaradorlik koʻrsatkichlari jamlangan tayyor qoʻllanma, dasturga ham qiyoslasak boʻladi. Shuning uchun ham tajriba xato qilish, ortiqcha yoʻqotishlarning oldini olishga xizmat qilishi, oʻz navbatida, koʻzlangan maqsadga erishishning samarali vositasi oʻlaroq butun dunyoda qimmatli ahamiyatga ega.

Soʻnggi yillarda sodir boʻlayotgan iqlim oʻzgarishi, turli nuqtalarda avj olayotgan ichki nizolar, urushlarning taʼsir koʻlami mamlakatlar rivojiga taʼsirini oʻtkazmoqda. Sababi, nizolar oʻchogʻi faqat oʻsha hududlar bilan chegaralanib qolmay, balki isteʼmol zanjirining uzilishi ortidan oziq-ovqat, sanoat va yana qator boshqa sohalar taraqqiyotiga toʻsqinlik qilmoqda.

Mana shunday murakkab vaziyatda har bir davlat oldida oʻz ichki imkoniyatlaridan toʻgʻri foydalanish va ularni takomillashtirish vazifasi turibdi.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 17-iyulda hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy oʻsish surʼatlarini taʼminlash boʻyicha birinchi yarim yillik tahlili hamda yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar

muhokamasi yuzasidan videoselektor yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Unda oʻtgan olti oyda yalpi ichki mahsulot 6,4 foiz koʻpaygani alohida taʼkidlandi.

Dunyo sahnida kechayotgan bunday murakkab jarayonda Oʻzbekiston yalpi ichki mahsulotining oʻsishida asosiy omillardan biri Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va Gʻijduvon tajribalarining oʻz samarasini berganidir.

Bir vaqtlar yilning kelishiga qarab, ekin ekishni rejalashtirgan odamlar bugun toʻrt fasl tomoqdan daromad olishga harakat qilmoqda. Albatta, hali tomoqqa beda ekin yoxud faqat oʻtin uchun daraxtlari boʻlgan xonadonlar yoʻq emas. Shunday boʻlsa-da, “Sayxunobod tajribasi” ommalashgan.

Jizzax viloyati Zarbdor tumanida ham ushbu tajriba faollashmoqda. Tumanda ayni vaqtda 24 ta mahalla mavjud. Har bir mahallada tomoqdan foydalanishni yaxshilash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tuman fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomoqqa yer egalari kengashi tomonidan oqova suv yetib bormagan mahalla hamda dehqonchilik xoʻjaliklari roʻyxati shakllantirilgan. Shu bilan birga, ularga artezian qudugʻi qazish boʻyicha koʻrsatmalar berilgan.

— “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida bugun Zarbdor tumanidagi mahallalarda ishlar jadallashgan. Shu bilan birga, “Sayxunobod tajribasi” boʻyicha oʻquv seminarlari tashkil etilmoqda,— deydi Oʻzbekiston fermer, dehqon xoʻjaliklari

va tomoqqa yer egalari kengashi boʻlim boshligʻi Elmurod Mamarahimov. — Ularga tomoqqa xizmati yoki eksportchi korxonalar birlashtirilgan, yetishtirilgan mahsulotlar ichki va tashqi bozorlarga sotilib, aholi gavjum hududlarda kichik hajmli dala doʻkonlari tashkil qilinyapti. Yana mahallalarga mini texnika, motokultivatorlar olib beryapmiz. Kam taʼminlangan oilalar va boshqa xonadonlarga kengash huzuridagi jamʼarmadan kreditlar taqdim etilyapti. Har bir mahallaning ixtisosligidan kelib chiqib, ekinlar ekilmoqda.

Xalqimizda “Yer—xazina, tuproq—oltin” degan gap bor. Yerga mehr bersang, sendan saxovatini ayamaydi, rizq-nasiba beradi. Bozor toʻkin-sochinligini taʼminlash orqali turmush farovonligiga erishishda tomoqdan umumli foydalanishning ahamiyati katta.

Zarbdor tumanining Lalmikor mahallasida yashovchi Oʻroʻzgul Ahmedova mehnatkash ayollardan.

— 15 sotix yerimiz bor. Shuning 10 sotixida 20 dan ortiq ekin, xususan, bodring, bulgʻor qalpamiri, qulupnay, pomidor, qovoq, limon koʻchatlari ekilgan,— deydi Oʻroʻzgul Ahmedova. — Bizga 60 tup golubika koʻchati berildi. Uning bir kilo mevasi bozorda 300-350 ming soʻm turadi. Bu yil hosilga kirdi. Kelasi yildan yaxshi daromad olishni koʻzlab turibmiz.

Amalga oshirilayotgan ishlar boshqa hududlarga oʻrnak boʻlishga arzigulik. Bugungi kunda bu tumanda “mahalla yettilligi” saʼy-harakatlari tufayli aholi bandligini taʼminlash va daromadini oshirishda ijobiy natijalarga erishilmoqda.

— Mahallamiz yaqinda tashkil topgan. 3 mingdan ortiq aholisining aksariyati yosh oila. Dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, bogʻdorchilik asosiy drayverimiz. “Sayxunobod tajribasi”ni biz ham qoʻllay boshladik,— deydi “Lalmikor” mahalla fuqarolar yigʻini raisi Akbarali Ergashev. — Hozir deyarli yuz foiz xonadon tomoqdan samarali foydalanmoqda. Xonadonlarga eng kamida 10 tadan 30 tagacha golubika koʻchati tarqatdik.

Zarbdor tumanidagi aholi tomoqqalaridan umumli foydalanish boʻyicha oʻrganish natijalarini oʻzaro baholash uchun Sayxunobod tumanidagi mahallalarga tashrif buyurildi. U yerda mahallalarning iqtisodiy oʻsish surʼatlarini taʼminlash boʻyicha birinchi yarim yillik tahlili hamda yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Unda oʻtgan olti oyda yalpi ichki mahsulot 6,4 foiz koʻpaygani alohida taʼkidlandi.

Dunyo sahnida kechayotgan bunday murakkab jarayonda Oʻzbekiston yalpi ichki mahsulotining oʻsishida asosiy omillardan biri Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va Gʻijduvon tajribalarining oʻz samarasini berganidir.

— 15 sotix yerimiz bor. Shuning 10 sotixida 20 dan ortiq ekin, xususan, bodring, bulgʻor qalpamiri, qulupnay, pomidor, qovoq, limon koʻchatlari ekilgan,— deydi Oʻroʻzgul Ahmedova. — Bizga 60 tup golubika koʻchati berildi. Uning bir kilo mevasi bozorda 300-350 ming soʻm turadi. Bu yil hosilga kirdi. Kelasi yildan yaxshi daromad olishni koʻzlab turibmiz.

Amalga oshirilayotgan ishlar boshqa hududlarga oʻrnak boʻlishga arzigulik. Bugungi kunda bu tumanda “mahalla yettilligi” saʼy-harakatlari tufayli aholi bandligini taʼminlash va daromadini oshirishda ijobiy natijalarga erishilmoqda.

— Mahallamiz yaqinda tashkil topgan. 3 mingdan ortiq aholisining aksariyati yosh oila. Dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, bogʻdorchilik asosiy drayverimiz. “Sayxunobod tajribasi”ni biz ham qoʻllay boshladik,— deydi “Lalmikor” mahalla fuqarolar yigʻini raisi Akbarali Ergashev. — Hozir deyarli yuz foiz xonadon tomoqdan samarali foydalanmoqda. Xonadonlarga eng kamida 10 tadan 30 tagacha golubika koʻchati tarqatdik.

Zarbdor tumanidagi aholi tomoqqalaridan umumli foydalanish boʻyicha oʻrganish natijalarini oʻzaro baholash uchun Sayxunobod tumanidagi mahallalarga tashrif buyurildi. U yerda mahallalarning iqtisodiy oʻsish surʼatlarini taʼminlash boʻyicha birinchi yarim yillik tahlili hamda yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Unda oʻtgan olti oyda yalpi ichki mahsulot 6,4 foiz koʻpaygani alohida taʼkidlandi.

Dunyo sahnida kechayotgan bunday murakkab jarayonda Oʻzbekiston yalpi ichki mahsulotining oʻsishida asosiy omillardan biri Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va Gʻijduvon tajribalarining oʻz samarasini berganidir.

— 15 sotix yerimiz bor. Shuning 10 sotixida 20 dan ortiq ekin, xususan, bodring, bulgʻor qalpamiri, qulupnay, pomidor, qovoq, limon koʻchatlari ekilgan,— deydi Oʻroʻzgul Ahmedova. — Bizga 60 tup golubika koʻchati berildi. Uning bir kilo mevasi bozorda 300-350 ming soʻm turadi. Bu yil hosilga kirdi. Kelasi yildan yaxshi daromad olishni koʻzlab turibmiz.

Amalga oshirilayotgan ishlar boshqa hududlarga oʻrnak boʻlishga arzigulik. Bugungi kunda bu tumanda “mahalla yettilligi” saʼy-harakatlari tufayli aholi bandligini taʼminlash va daromadini oshirishda ijobiy natijalarga erishilmoqda.

— Mahallamiz yaqinda tashkil topgan. 3 mingdan ortiq aholisining aksariyati yosh oila. Dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, bogʻdorchilik asosiy drayverimiz. “Sayxunobod tajribasi”ni biz ham qoʻllay boshladik,— deydi “Lalmikor” mahalla fuqarolar yigʻini raisi Akbarali Ergashev. — Hozir deyarli yuz foiz xonadon tomoqdan samarali foydalanmoqda. Xonadonlarga eng kamida 10 tadan 30 tagacha golubika koʻchati tarqatdik.

Zarbdor tumanidagi aholi tomoqqalaridan umumli foydalanish boʻyicha oʻrganish natijalarini oʻzaro baholash uchun Sayxunobod tumanidagi mahallalarga tashrif buyurildi. U yerda mahallalarning iqtisodiy oʻsish surʼatlarini taʼminlash boʻyicha birinchi yarim yillik tahlili hamda yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Unda oʻtgan olti oyda yalpi ichki mahsulot 6,4 foiz koʻpaygani alohida taʼkidlandi.

jarayonida mahallalarning ixtisoslashuviga koʻra, asalarichilik, baliqchilik, issiqxona, parrandachilik va boshqa qator daromad keltiruvchi loyihalar paketi 8,9 mingta xonadonga taklif etilgan. Natija esa koʻngildagidek. Loyihalar paketi yetkazilgan har bir xonadon 50-60 million soʻmdan daromad olib, aholi bandligi taʼminlanmoqda.

Bir soʻz bilan aytganda, sumkani ortmoqlab xorijga ketishdan koʻra, oʻzgina mehnat va tajribani ishga solib, yurtida, ota-ona, farzandlar bagʻrida yaxshi daromad koʻrish imkoniyati yaratilmoqda.

Eng quyi tizim bilan ishlash orqali boshini qaysi toshga urishni bilmay yungan yoki mahalliy rahbarlar ilofotiga qarab yillarni sarflab yuborgan odamlarning yumushi yengillashmoqda. Bir yili tuman bankiga ishim tushdi. Kimdir bogʻdorchilik, yana kimdir chorvachilik va yana qandaydir tadbirkorlikni boshlash istagidagi odamlarning holiga guvoh boʻlganman. Taʼlim krediti olish uchun bir hafta vaqim ketgandi. Ammo men bilan birga qatnagan, tadbirkorlik qilaman degan insonlar biri kafil qidirib, biri maʼlumotnoma toʻgʻrilab, yana biri boshqa hujjat olish uchun vaqtini oʻtkazayotgan edi. Oʻsha damda ular olis qishloqdan tuman markazigacha har kuni yoʻlkira sarflab, umid ilinjida banka qatnardi. Kunora kuzatilgan hujjatbozlik va adogʻi yoʻq navbat odamlarni holdan toydirish bilan birga ularni kelajakka ishonchsizlik uygʻotgandi. Guvohi boʻlganim, aksariyat yurtidoshlarim quruq qoʻl bilan uyiga qaytgandi.

Endi mahallabay ishlash tizimi yoʻlga qoʻyilishi ortidan aholi xohish va istaklari xonadonna-xonadon kirib oʻrganilmoqda. Kredit olishga “mahalla yettilligi” koʻmak bermogʻda. Bu, albatta, quvonarli holat.

Xususan, endi “Zarbdor tajribasi” asosida tumanlarda sanoat, savdo, xizmat va zamonaviy agrotexnologiyalar sohasida drayver loyihalar qilinadi. Bu yil ularni amalga oshirish uchun 500 milliard soʻm ajratish belgilangan. Agar loyihalar natija bersa, yana 150 ming ish oʻrni yaratilishi koʻzda tutilgan.

chiqadiki, endi tadbirkorlik istagida boʻlganlar yuqorida toʻxtalib oʻtganimiz — kredit masalasidagi qiyinchiliklar bilan emas, balki yoʻlga qoʻyilgan tajribadan umumli foydalanib mehnat qilsa boʻlgani. Shu orqali jamiyatning qaysidir nuqtasida iqtisodiy koʻtarilish boʻlsa, oʻsha yerda ulkan maqsadlar bilan yashaydigan insonlar shakllanadi.

Shu bilan birga, joriy yilning 1-dekabrigacha “Sayxunobod tajribasi” asosida xonadonlar uchun moliyaviy paket beriladi. Agar bu paketlar oʻz samarasini bersa, 495 ming aholi bandligi taʼminlanishi koʻzda tutilgan. Shuningdek, ikkinchi yarim yillikda “Oilaviy tadbirkorlik” dasturi qamrovi 1,5 barobar oshiriladi. Albatta, bu qoʻshimcha ish oʻrinlari yaratilib, aholi daromadi yanada oʻsishidan darak. Natijaga erishish uchun esa sohaga 4 trillion soʻm yoʻnaltiriladi.

Bu reja va maqsadlar bejiz ilgari surilmayapti. Tasavvur qiling, bir vaqtlar ish topolmagan millat onalari, boʻy yetmagan qizlar, yoshi katta kishilarning aksariyati paxta dalasidan chiqmasdi. Bu ish kech kuzning sovugʻini yeb, birinchi qorning yogʻishi bilan tugallanardi. Yoxud chet elga ishlashga ketgan insonlarning bolalari ularning diydorini oylab, hatto yillab kutgani ham bor gap.

Oʻtmish oʻz yoʻliga. Bizni har daqiqada hushyorlikka, ilm olishga, iqtidor va qobiliyatni oʻz vaqtida yuzaga chiqarishga undayotgan kelajak kutib turibdi. Sababi, soʻnggi yillarda dunyo miqyosidagi global muammolardan biri ishsizlikdir. Ishsizlikning asosiy sababi esa bor imkoniyatlardan umumli foydalanmaslik, “bersa yeyman” degan qarashning singib ketganidir. Inson kamolotiga zamin yaratish oʻz vaqtida ilgari surilgan islohotlar va ichki imkoniyatlarni toʻgʻri yoʻnaltirish ortidan boʻladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Har ishda bir
HIKMAT BOR

Davlatimiz rahbari Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi tajribani butun respublika boʻylab qoʻllashni koʻp bora taʼkidlagan.

“Sayxunobod tajribasi” imkoniyatdan yanada umumli foydalanish, tomoqchilikni rivojlantirish, dehqonlarga bozor topishga koʻmaklashish, eksport uchun amaliy yordam berish, yerga boʻlgan munosabatni shakllantirish kabi muhim islohotlarni oʻz ichiga oladi. Bunday tajribani boshqa hududlarda ham joriy etish orqali aholi tomoqqalaridan yanada samarali foydalanish mumkin. Bu esa nafaqat oʻsha tuman, viloyatdagi, balki butun respublikadagi iqtisodiy oʻsishga zamin hozirlaydi.

“Bir sinalgan tajriba yetti kitobdan afzal” deganlaridek, bu tajriba qisqa fursatda respublikamizning eng chekka hududlarida ham samara bera boshladi. Uning keng yoyilishiga sabab belgilangan vaqtda oʻz natijasini koʻrsatayotganidir. Xorazm viloyatida ham ushbu tajriba koʻlami sezilmoqda. Xususan, Urganch tumani Hilol mahallasida aholi bandligini taʼminlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish borasida “mahalla yettilligi” va faollari bilan birgalikda sezilarli ishlar amalga oshirilyapti. Mahalla aholisi tomoqchilik, chorvachilik, parrandachilik va asalarichilik bilan shugʻullanadi. “Mahalla yettilligi” uyma-uy yurib, aholiga yaratilayotgan

imkoniyatlardan kelib chiqib, ish taklif qilyapti. Eʼtiborli jihati, bu ishlarining aksariyati kooperatsiya usulida tashkil qilmoqda. Mazkur mahallada yashovchi Baxtiyor Hasanov oʻz xonadonida kooperatsiya usulida parrandachilikni yoʻlga qoʻygan — joʻja parvarishlayapti.

— Parrandachilik bilan shugʻullanayotganimga yaqinda bir yil boʻladi,— deydi B.Hasanov. — Bunda menga “Qoʻshkoʻpir parranda” MCHJ yaqin hamkor. Joʻjalarni yaxshi parvarish qilsangiz, daromadi yomon boʻlmaydi. Misol uchun, 2 mingta joʻja boʻlsa, uzugʻi bilan 45 kun boqiladi. Har biridan 10 ming soʻmdan qoladi. Oʻrtacha hisobda 100 tasi muayyan sababga koʻra nobud boʻlsa ham 45 kun ichida 19 million soʻm daromad koʻrish mumkin. Xorijga borib, sarson yurgandan koʻra, shu yerda har bir ishda fikr yuritib, sabr-qanoat bilan mehnat qilsa, yaxshi yashasa boʻladi.

Chindan ham har tashabbusda hikmat bor. Tajriba ortidan koʻplab oilalar iqtisodiy ahvoli yaxshilaniib, dasturxoniga qut-baraka kirmoqda. Odamlarning hayotiga ishonchi uygʻonib, qulfi dili ochilmoqda.

Bugun Xorazm viloyatining boshqa tuman va shaharlarida ham natijalar boʻy koʻrsata boshladi. Eng muhimi, odamlarning tomoqqa, tadbirkorlikka qiziqishi ortgan.



Qisqa vaqtda KATTA NATIJA

Xalqimizda “Hunar toʻygʻizari, ot mindirib, toʻn kiygizari” degan ibora bor. Yurtimizning deyarli barcha hududlarida oʻziga yarasha hunarmandlik maktablari shakllangan. Boshqa hududlik kishi biror kimni soʻrab kelsa, uning kasbi koʻshib aytilishi ham hunari bor odaming obroʻsidan darak bergan. Bilgichlar aytardi, oʻtning birgina egarini yasash uchun 6 oydan 1 yilgacha vaqt ketar ekan. Egarning tobini tushirishni ham har kim eplolmagan.

Texnika takomillashtirish uchun koʻplab hunarmandlik maktablari jar yoqasiga kelib qoldi. Ammo bugun yaratilayotgan imkoniyatlar ortidan koʻplab insonlar oʻz kasbu hunarini izga tushirib olmoqda.

Namangan shahrida duradgorlik, temirchilik, oʻymakorlik, zargarlik rivojlangan. Joriy yil Prezidentimiz Namangaga tashrifi chogʻida “Men Sayxunobodda” “Bu yil iqtisodiyotimizda hayotiy uygʻonish va yuksalish yili boʻladi”, dedim. Maqsad — inson salohiyatiga kapital yoʻnaltirish, uni harakatkaga undash, dunyoqarashni oʻzgartirish. Uychi tumani ham iqtisodiyoti ogʻir hudud. Ushbu tizim asosida ishsizlarga tomoqdan daromad topish, oʻz ishini ochish, qobiliyatini yuzaga chiqarishga koʻmaklashish kerak”, degandi.

Qisqa vaqt ichida Uychi tumani sanoat va boshqa sohalarida yuksalish kuzatildi. Buning asosiy sababi mahallalarda shakllangan kasb-hunararni rivojlantirib, drayverga aylantirish, shu orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirish davlat siyosati darajasiga koʻtarilganidir. “Uychi tajribasi” butun respublika boʻyicha keng joriy qilinishi belgilandi.

Andijon viloyatining Oltinkoʻl tumanida shu tajriba asosida tumanli ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, aholi bandligini taʼminlash orqali daromadini oshirish, shuningdek, tomoqdan



foydalanish boʻyicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada mahallabay ishlash tizimi oʻz samarasini bermogʻda. Birgina misol. Oltinkoʻllik Botirjon Abdullayev tadbirkorlikni boshlamasdan oldin xorijga ketishga tayyorgarlik koʻrayotgandi. “Mahalla yettilligi” koʻmagi bilan unga 100 million soʻm kredit ajratildi. Bu mablagʻ evaziga u oʻrindiqlar ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻydi.

— Oldinlari bu sohada mayda ishlarini qilib yurardik. Qoʻlimizda hunarimiz bor-u, amalda daromadni qanday oʻstirishni bilmasdik. Yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, bir necha oy oldin biznesimizni yoʻlga qoʻydik,— deydi Botirjon Abdullayev. — Oʻzimizning ichki bozordan tashqari qoʻshni Qirgʻiziston va Tojikistonga ham mahsulot eksport qilyapmiz. Bugungi kunda “Uychi tajribasi”ni yanada

takomillashtirish boʻyicha qator ishlar belgilab berildi. Xususan, “Uychi tajribasi”ga asosan, tuman hokimi va bank rahbarlari tadbirkorlar bilan uchrashib, ularning biznesini kengaytirishga koʻmaklashadi. Bunda hokim yer, elektr, suv, yoʻl va boshqa infratuzilma masalasini, bank esa mablagʻni hal qiladi. Shu orqali yil yakunigacha 670 ming aholi bandligini taʼminlash mumkinligi aytiladi.

Agar belgilangan rejalarda oshsa, aholi ish bilan band boʻlishi bilan birga unib kelayotgan yoshlarni kasbga yoʻnaltirishi ham ahamiyatli.

Yuqoridagi tajribalar amalda yaxshi natija bergani hali marra emas. Kelgusida bu tajribalarni kengaytirish bilan birga takomillashtirish ham koʻzda tutilmoqda. Endi tuman hokimi, bank rahbari va mahalla raisi ishlash boʻyicha uch tomonlama shartnoma tuzadi. Bundan kelib



Oliy ta'limdagi yangilanishlar



KELAJAK MUTAXASSISLARI

MUHANDISLIK MAKTABLARI
QANDAY RIVOJLANADI?Fazliddin MO'MINOV,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi boshqarma boshlig'i

Xalqaro tajribaga ko'ra, muhandislik maktablari tashkil etilgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ilmiy hajmdor mahsulotlar o'sishi kuzatilmogda. Masalan, Eronda so'nggi uch yilda tovarlar eksporti qiymati 295 million dollardan 2 milliard 510 million dollargacha yetgan. Rossiyada 2021-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotida yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi 23 foizni, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 1,7 foizni tashkil qilgan. Yevropa Ittifoqining yuqori texnologiyali mahsulotlarining umumiy eksportdagi ulushi 2010-yildagi 15 foizdan 2021-yilda 17,7 foizgacha oshgan.

YANGI AVLOD
MUHANDISLARIGA
EHTIYOJ KATTA

Mamlakatimizda innovatsion texnologiyalar va metodikaga, xususan, muhandislik ta'limiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'qitishning innovatsion texnologiyalari ishlab chiqilib, joriy qilinmoqda. Pedagoglar va talabalarning harakatlanligi oshib, samarali fikr almashish, malaka oshirish va universitetlararo aloqalarni rivojlantirishga erishilmoqda. Shunga qaramay, muhandislik faoliyatining barcha sohasida murakkab innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish, joriy etish va qo'llab-quvvatlashga

qodir bo'lgan yangi avlod muhandislariga ehtiyoj katta.

O'zbekistonning xalqaro aloqalari va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan imzolangan shartnomalari ham, asosan, sanoatni rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, O'zbekiston va Rossiya o'rtasida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlikning kompleks dasturi qator tarmoqlar, jumladan, sanoat kooperatsiyasi, transport, energetika, aloqa, fan, ta'lim, atom energetikasi va boshqalarni qamrab oladi.

Germaniya bilan hamkorlik natijasida o'zlashtirilgan olmon investitsiyasi hajmi ikki barobar — 700 million dollardan 1,5 milliard dollargacha oshdi. Bu O'zbekiston iqtisodiyotining tog'-kon, kimyo, to'qimachilik, qurilish sanoati kabi asosiy tarmoqlariga yo'naltirildi. Materiallar, energiya, transport va boshqalarga sarflandi. Xitoyning "Shenyang Yuanda Intellectual Industry Group" kompaniyasi mamlakatimizda lift ishlab chiqarishni rejalashtirmogda.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston — Fransiya hukumatlararo komissiyasining navbatdagi yig'ilishida qurilish materiallari ishlab chiqarish, tog'-kon sanoati, aviatsiya va avtomobilsozlik, "yashil" energetika, suv ta'minoti kabi qator yangi istiqbolli yo'nalishlar belgilandi.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Eng muhimi, bu sa'y-harakatlar mamlakatimiz sanoatini rivojlantirish va sanoat mustaqilligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan muhandislik-texnika sohasida mutaxassislar tayyorlashga ehtiyoj kattaligi va masalaning dolzarbligini ko'rsatadi.

KASBNING ELITASI
TAYYORLANADI

Yurtimizdagi 10 ta OTMda muhandislik maktablari ochiladi. Ularning kuzatuv kengashi tarkibiga nafaqat olimlar, balki hamkor korxonalar vakillari ham kiritiladi. Bundan tashqari, maktablarda ikki yillik magistratura dasturlari mavjud bo'ladi. Prezidentimizning Olmazor tumanidagi "Inno" innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnologiyalar parkiga tashrifi chog'ida shu haqda so'z yuritildi.

Nomzodlar ishlab chiqaruvchilarning buyurtmasi asosida tanlanadi. Talabalar 1-kursda korxonalar buyurtmasi bo'yicha yangi

mahsulotlarni loyihalashtiradi, ilmiy tadqiqotlar qiladi va chuqurlashtirilgan modul dasturlari asosida o'qiydi. Ikkinchi yili korxonalarda yangi mahsulotlarning tajriba-konstruktorlik namunalarni yaratish bilan bog'liq texnologik jarayonlarni sinovdan o'tkazadi.

Oliy o'quv yurtlarida iste'dodli o'zbek muhandislarining yangi avlodi shakllanmogda. Muhandislik maktablari ular uchun eng katta imkoniyat. Mazkur maktablar faoliyati

yoshlardir. Bitiruvchilar biotexnologiya, mashinasozlik, aviatsiya, tibbiyot va boshqa sohalaridagi nstandart masalalarni hal qiladi.

Milliy iqtisodiyot oldida turgan ustuvor vazifalar va ishlab chiqarishdagi sheriklar bilan hamkorlik muhandislik maktablarida yangi turdagi ta'limning asosini tashkil qiladi. Muhandislik maktablari faoliyati endi boshlanmogda va kelajakda boshqa oliy o'quv yurtlarida ham yo'lga qo'yiladi.



mamlakatimiz sanoat tarmoqlari uchun yangi kadrlar o'zagini shakllantirishga yo'naltiriladi. Yetakchi ishlab chiqarish hamkorlari bilan birgalikda ilmiy-ta'limiy infratuzilma va o'qitish dasturlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Muhandislik maktablarda ular ta'lim etilgan OTM o'qituvchilari, shuningdek, korxonalarning yetakchi amaliyotchi muhandislari hamda boshqa oliy o'quv yurtlari va ilmiy tashkilotlarning tanliq olimlari ishlaydi. Ko'pincha ilg'or maktablar o'quv tajribalariga tayyor, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish istagi bor, asosiy, amaliy tajribaga ega pedagoglarni taklif qiladi. Birlamchi vazifa yosh muhandis-texnologlar o'rtasida yangi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Ularda o'qitishning asosiy tamoyillari zamonaviy ta'lim, muayyan soha ehtiyojiga yo'naltirilgan, ilg'or uskunalar bilan jihozlangan laboratoriyalar, eng muhimi, o'z ishiga ishtiyoqli

O'qish jarayonida talaba korxonada turli bo'limlar va mutaxassislarning o'zaro hamkorligini o'rganadi, ijodkorligini namoyon qila oladi va tez o'zgaruvchan sanoat dunyosida professional rivojlanish zarurligini tushunadi.

Talabalar ishlab chiqarish borasida manfaatdor bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha bakalavriatdagi o'qishi natijalariga ko'ra tanlab olinadi hamda muhandislik maktabining magistratura dasturida ishlab chiqarish hamkori qo'ygan vazifalar bo'yicha ishlaydi.

Turli oliy o'quv yurtlarida tashkil etilgan maktabning vazifalari farqli bo'lsa-da, umumiy maqsad muhandislik ta'limining yangi modelini shakllantirishdan iborat. Uni kelajakda mamlakatimizning barcha oliy o'quv yurtlarida yuqori malakali va ko'p qirrali muhandis kadrlarga ehtiyojni ta'minlash uchun qo'llash mumkin.

Shunday qilib, dizayn muhandisi mashinani qanday loyihalashni biladi, lekin texnologiyani

unchalik yaxshi bilmaydi yoki o'z muammolarini hal qilishda raqamli texnologiyalarni tushunmaydi. Bugun bizga mahsulot va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishning butun siklini har tomonlama biladigan muhandis kerak. Muhandislik maktablari esa ommaviy muhandislarni emas, balki kasbning elitasini — oddiy dizaynarga ko'pincha ko'rinmaydigan ahamiyatsiz muammolarini hal qilishga qodir mutaxassislarni tayyorlaydi.

Talabalar va o'qituvchilar muhandislik maktablarining o'quv maydonida amaliy mashg'ulotlar va amaliyot o'tashi, yangi kompetensiyalarga ega bo'lishi mumkin. Biroq bu maktablarning asosiy faoliyati talabalar turli ta'lim dasturlari bo'yicha bitirishiga ko'maklashishdir. Qoida tariqasida muhandislik maktablari o'quv dasturlarida amaliy komponentning katta ulushi tufayli kamroq ma'ruza va seminarlar mavjud. Amaliyot, darsdan tashqari loyihalar, raqamli yechimlar va zamonaviy tadqiqot, texnologik uskunalaridan faol mustaqil foydalanish shular jumlasidan. Ushbu loyihada sanoat hamkorlarining o'rni katta. Ular o'z xodimlarini ishlab chiqarish bo'yicha murabbiylar va o'quv dasturlari o'qituvchilari shaklida ta'lim va tadqiqot jarayonlariga integratsiya qiladi.

Bu, birinchi navbatda, muhandislik maktablarida ta'lim tizimini ajratib turadigan sanoat hamkorlari bilan o'zaro aloqadir. Muhandislik maktablarida 10 mingdan ortiq muhandis qo'shimcha kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha tayyorlanadi.

TA'LIMNING YANGI,
YANADA TO'LIQ VA
UYG'UNLASHGAN MODEL

Muhandislik maktablarining tuzilishi xilma-xilligi bilan ajralib turishi kerak. U innovatsion faoliyat uchun mutaxassislarning texnik va axborot tayyorgarligini ta'minlaydigan ko'plab ta'lim muassasalarini o'z ichiga olishi lozim. Masalan, qishloq xo'jaligida oziq-ovqat xavfsizligi va texnologik xavflar bilan bog'liq agrobiotexnologiya sohasidagi muhandislik maktabi.

Ish global tendensiyalar va muammolarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Maktabning ichki faoliyati ishlab chiqarishni

yaxshilash va mahsuldorlikni oshirish, qishloq xo'jaligi chiqindilarini qayta ishlash, hayvonlar va o'simliklar naslchiligini ko'paytirish, shuningdek, jonivorlar uchun bioaktiv ozuqa qo'shimchalarini yaratish bilan bog'liq bir qancha yo'nalishlar bo'yicha taqsimlangan. Muhandislik maktabining barcha ishi sanoat sheriklari bilan yaqin hamkorlikka asoslangan.

Optika va sensorlar yo'nalishi turli strategik obyektlar — quduqlar, to'g'onlar, ko'priklar, tunnelar, qurilish poydevorlari va boshqalarning holati to'g'risida tezkor ma'lumotlar olish uchun optik sensorlar yaratishga imkon beradi. Bu esa ta'limning yangi, yanada to'liq va uyg'unlashgan modelini hayotga tatbiq etish, zamonaviy kasb-hunarlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash zarur, degani.

Bitiruvchilarning muhandislik-texnik tayyorgarligi sifatini saqlash va baholashning asosiy vositasi tegishli standartlarga muvofiq, shuningdek, fan, yuqori texnologiya va ishlab chiqarish yutuqlari hamda ehtiyojlari ko'zda tutilgan samarali ta'lim dasturlaridir.

Muhandislik maktablarini tashkil etishdan maqsad O'zbekistonning texnologik suverenitetiga erishishni ta'minlashga qodir, yuqori malakali muhandis kadrlarni tayyorlashdan iborat. Shu bilan birga, mamlakatimizda muhandislik ta'limi iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish sharoitiga moslashishga qaratilishi kerak.

Ushbu muhim muammoni hal qilish uchun barcha harakatlar aniqlik talab qiladi. Masalan, tez o'zgaruvchan ishlab chiqarish va bozor sharoitlariga oson moslasha oladigan keng yo'nalishli mutaxassislar tayyorlash, iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlarini hisobga olgan holda muhandislik ta'limi profilini o'zgartirishda moslashuvchanlik, o'quv jarayonida o'quvchilarning kognitiv faolligini va muloqot qobiliyatini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni jadal rivojlantirish, oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish, bundan tashqari, oliy ta'lim tizimida, shu jumladan, muhandislik maktablarida ilmiy tadqiqotlar rivojlantirishni ta'minlash ustuvor vazifalardir. Ushbu muammolarini hal qilish keng ko'lami tadqiqotlar va innovatsion ishlarni joriy etishni talab qiladi.

Qolaversa, shu jarayonning o'zida egallayotgan hunaridan talabaning qoniqish darajasi ham belgilanadi. Kutilmalar haddan tashqari ortib ketmaydi, ishga qandaydir orzular panjarasidan emas, balki real ko'z bilan boqiladi. Negativ jihatlarini ijobiyga aylantirish mumkinligiga oid tavsiyalar beriladi.

Bugun o'z kasbidan rozi bo'lib ishlaydigan insonlarning mamnunlik sabablari bir nechta. Avvalo, ular kasbini sevadi, shuning uchun undagi ayrim qiyinchiliklar ko'zga ko'rinmaydi. Uncha-muncha mashaqqatlarga e'tibor qilinmaydi. Ikkinchidan, ular egallagan kasbida yetakchi. Ishidan rozi insonlarning aksariyatini mana shu omillar bog'lab turadi.

Yaxshi kadr bo'lgani sabab ularga ko'p maosh to'lanadi va mukofotlar belgilanadi. Bu ularning ishxonadagi va oiladagi mavqei ham ko'tarib beradi. Aynan mana shu jihat ularning ishga bo'lgan hurmat, mehr va bu orqali rozilik hissiini yana ham orttiradi. Shunday ekan, kadrlarni ikki narsaga — kasbni o'zi sevib tanlashga va o'sha ishning yetuk mutaxassisi bo'lishga choralash kerak.

Bo'lajak kadrlarda zaruriy yana bir fazilat — kasbga sadoqatdir. Oddiy misollarda tushuntirsa, kasbga sadoqatli inson katta sabablari bo'lsa ham ishini tashlab qo'ymaydi. Bunday fazilat shakllanmagan kadrlar esa kichik bahonalar ham ishidan uzoqlashtirib, unga bormay qo'yishga sabab bo'la oladi.

Kasbga sodiq inson ishxona sirlari, jamoa loyihalarini boshqa joylarda muvofiq qilmaydi, qanday jamoaviy muammolar kelib chiqqan taqdirda ham ularni chetda hal qilishga urinmaydi.

Shaxs o'z hududi, o'z chegaralarini bilsa, tanisa, demak, u kasbiga, jamoasiga nisbatan ham sadoqatli bo'la oladi. Ammo inson shaxsiy chegaralariga ega bo'lmasa, uning kasbga nisbatan mas'uliyatli bo'lishi murakkab ish, imkonsiz bo'lib qoladi. Shunday ekan, ba'zan bu mavzuda pedagog shakllantiruvchi emas, balki yo'lovchidir. Buni unutmashlik zarur.

Xulosa o'rinda aytish mumkin, har bir inson o'z taqdiri uchun o'zi mas'ul, qaysi yo'ldan borish va qanday manzilga yetishni o'zi hal qiladi. Ammo bu yo'lni baland-pastidan xabardor, oqil ustoz bilan manzilga yetish osonroq kechadi.

OQIL USTOZ BILAN
MANZILGA YETISH OSONROQ

Nuqtayi nazar

Gulnoza JO'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori

Bugungi kunda ish beruvchilar oldida turgan eng katta muammolardan biri xodimlarning o'z kasbidan qoniqib, rozilik va sadoqat bilan ishlashi masalasidir. Sababi, hozir ishchilarda, kasb egalarida yetishmaydigan, ularni qiynaydigan mavzular aynan shular. Shunday ekan, bo'lg'usi kadrlarni tayyorlayotgan o'qituvchi-murabbiylarning tamal vazifasi ta'lim berishgina emas, ularda vatanga daxldorlik, mas'uliyat, o'z ishiga mehr bilan yondashish, kasbidan rozilik tuyg'ularini ham tarbiyalashdan iborat bo'lib qoldi.

Ayni damda yoshlarning ehtiyojlari kattalashib boryapti. Ular bir vaqtning o'zida bilimga chanoq. Bir necha xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladi, har jahada o'zini ko'rsatishga qodir, iste'dodini namoyon qila biladi, eng muhimi, shunga munosib ish

topishni xohlaydi. Daromadi ehtiyojlargagina yetib qolmay, ortishini, dunyo ko'rishni, yaxshi sharoitlarda yashashni istaydi. Bir so'z bilan aytganda, ularda ko'p va tez pul topishga qiziqish ancha ortib ketgan. Mana shu jihat yoshlarni yaxshi daromadli kasb tanlashga undaydi va aynan shu omil bo'lajak ishchilarni ilhomlantira oladi.

Bugun ustoz — motivator, ustoz — yo'lbo'shchi, ustoz — hayotga tayyorlovchi. Kadrlar tayyorlash bir vaqtlar asosiy vazifa bo'lgan bo'lsa, bugun ular o'z ishining ustasi, mas'uliyatli, ishga chanoq, ancha mahoratli bo'lishi kerak. Zamonaviy oliyoghlarning vazifasi yetuk va salohiyatli, bilimli, ichki tuyg'ulari tarbiyalangan kadrlarni jamiyatga qo'shishdan iborat.

Avvalo, har bir insonda, qanday kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, vatanga daxldorlik hissi shakllanishi shart. Befarqlik barcha illatlarning doyasidir.

Vatanga daxldorlik tuyg'usini shakllantirishda ona — birinchi ustoz. Chunki farzandda bu his ona qornidan boshlab shakllanadi. Uni rivojlantirishda ustozlar muayyan yo'lga kelgan shaxsni qo'llaydi. Sababi, ungacha bolada bu tushuncha bor bo'lishi kerak. Deylik, talaba pedagogika sohasida ta'lim oladi, kelajakda u ona tili va adabiyot o'qituvchisi bo'lib yetishadi. Uni qanday qilib vatanga daxldor kadrqa aylantirish mumkin?

Aniqlik, ungacha kelajakda har qanday kasb egasini, xoh u shifokor bo'lsin, xoh muhandis — barchasini tarbiyalashini va yana kasb egalari ertaga vatan uchun, xalq uchun xizmat



qilishini uqtirish orqali bunga qisman erishsa bo'ladi.

Talaba oliyog'ni bitirgach, o'z yo'nalishi bo'yicha ish boshlaydi. Kasbidan qoniqish, zimmasidagi vazifani sidqidildan ado etish, mehr bilan faoliyat yuritish insonni charchatmaydi. Aksincha, quvvat bag'ishlaydi.

O'z kasbidan qoniqadigan inson, avvalo, uni hech qanday bosimsiz, o'z xohishi bilan tanlagan. Uni yaxshi ko'radi, qadriga yetadi. Demak, avvalo, bo'lg'usi kadrlarni kasbini o'zi tanlashga o'rgatish, imkon berish lozim.

Bugungi yoshlar kechagi yoshlar emas. Ular izlanadi, tahlil qiladi, solishtiradi. Imkoniyatlarini, bilimni chamalaydi. Shunga ko'ra, bir kasbning etagidan tutish uchun qadam tashlaydi.

Yoshlar, avvalo, ishga kirmoqchi bo'lgan joyni sinchiklab o'rganishi, daromadi, ish vaqti, dam olish kunlari, u yerdagi muhit, rag'batlar, asosiy, o'sish borasida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Bu uchun ularga amaliyotlar belgilangan.

Talabalarning amaliyotga borishini to'liq

ta'minlash, ular bilan jarayonda tanlagan kasbining ijobiy va salbiy tomonlari, hali ham shu kasbni egallashda sobitmi yoki yo'qligi haqida subhatlar o'tkazilib turishi maqsadga muvofiq. Bo'lajak ishxonasidagi muhit unga qay darajada yoqqani, kelajakda o'zini shu kasbda ko'ra olayotgani yoki olmayotgani, bu borada bir qarorga kelganini bilish pedagogning zimmasida qoladi.

Shunda bo'lajak kadrlar tanlagan kasblaridan afsuslanib qolmasligini ta'minlash mumkin bo'ladi.

